



O'simliklar insonlarga qanday foyda keltiradi?  
Tabiatga-chi?

## 1. O'simliklarning foydasi



Karbonat angidridni yutib, nafas olish uchun zarur bo'lgan kislorod ishlab chiqaradi.



Yer yuzini quruq shamol va qurg'oqchilikdan himoya qiladi.




Iqlimni yumshatadi va namlantiradi.



Hayvonlar uchun ozuqa bo'ladi.



Qushlar va hayvonlarga boshpana bo'ladi.



Tuproqni yumshatadi va oziqlantiradi.



**1-topshiriq.** Insonlarga foyda keltiradigan o'simliklarni eslab, nomlarini yozing.



Odamlarga oziq-ovqat bo'ladi.



Qurilishga xomashyo bo'ladi.



Tola, mato, qog'oz olinadi.



Musiqiy cholg'ular va mebellar tayyorlanadi.



Aholi punktlari va turar joylarni obodonlashtirish uchun ekiladi.



Dori-darmonlar ishlab chiqariladi.

## 2. Chinor va qayrag'och



**Chinor**



**Chinor** – tanasi mustahkam, katta daraxt. U ildizlari yordamida kuchli qurg'oqchilikda ham tuproqdan suvni osongina shimb oladi. Chinor soyasi ostida musaffo havodan nafas olish insonga huzur bag'ishlaydi.

**Qayrag'och** – balandligi 40 metrgacha, tanasining yo'g'onligi 2 metr atrofida bo'lgan ulkan daraxt. U O'zbekistonning qurg'oqchil iqlim sharoitiga yaxshi moslashgan.

Odamlar qulay bo'lishi uchun atrof-muhitni o'zgartiryaptilar. Lekin ular qulaylikka intilib, tabiatga zarar yetkazayotganlarini unutmoqdalar. Masalan, issiq suv ishlab chiqarish uchun ko'mir yoki tabiiy gaz yoqiladi. Avtomobillardan chiqayotgan gazlar havoni zaharlaydi. Atrof-muhitni yaxshilash maqsadida, shaharlarda O'zbekiston iqlimiga chidamli daraxtlar ekilyapti.



**Qayrag'och**



**2-topshiriq.** Yana qaysi daraxtlar shaharga foyda keltiradi?

### 3. Saksovul va archa

Ko'pincha tuproq shamol yoki suv ta'sirida yemiriladi. Aynan daraxt ildizlari tuproqni bu kabi tashqi ta'sirlardan himoya qiladi.



**Saksovul**

Bahor va yozda tog'lardagi qorlar eriydi. Erigan suvlar selga aylanib, yo'lida uchragan qishloqlar, yo'llar va ekin maydonlariga zarar yetkazadi. Shuningdek, tog' yonbag'irlaridagi tuproqning yuvilishiga sabab bo'ladi. Buning oldini olish maqsadida archa daraxtlari ekiladi. Archa o'zining ildizlari bilan tuproqning zichligini oshiradi. Archazorlar yer yuzasida oqayotgan suvni shimib olib, uni yerosti buloqlariga qo'shib yuboradi.

**Saksovul** cho'l o'simligi bo'lib, balandligi 5-8 metrga yetishi mumkin. U o'zining kuchli ildizlari bilan qumli tuproqni mahkam ushlab turadi va shamol uni ko'chirishiga yo'l qo'ymaydi. Saksovul cho'ldagi qum va changlarning harakatini to'xtatishga yordam beradi.



**Archa**



Saksovul va archalar kesilib ketmasligi uchun nima qilish kerak?

## 4. Xonaki o'simliklar

Ranglar inson kayfiyatiga ta'sir qiladi. Yashil rang kishini tinchlantiradi. Shuning uchun inson doim atrofini chiroyli o'simliklar bilan to'ldirishga intiladi va ularni hovliga yoki gultuvaklarga ekadi.

Ko'pgina xonaki o'simliklar nafaqat uyni bezaydi, balki xonadagi chang va zararli gazlarni yutib, o'zidan kislorod chiqaradi, havoni tozalab, namlik miqdorini oshiradi.



Xlorofitum



Pechakgul



Aloe vera

Yelpig'ichsimon  
palma

Hibiskus



Bambuk



**3-topshiriq.** Havoni eng ko'p namlantiradigan o'simliklarning nomlarini daftarga yozing.



Uyingizdagи xonaki o'simliklardan birining rasmini chizib, nomini yozib qo'ying. U haqida biror qiziqarli ma'lumot aytib bering.